



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 25 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METHODS USED IN BUSINESS DECISION-MAKING	10
Ochilidiev Bekhruz To'liqin o'g'li, Safarov Alisher	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING AMALIY TAHLILI O'ZBEKISTON MIQYOSIDA VA UNING XUFYONA JIHATI	15
Yuldasheva Nargiza Rashidovna, Koshanov Abdimurat Azat uli	
BIZNESDA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA KASBIY KOMMUNIKATSIYALAR	20
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Normamatova Sitara Nozim qizi, Umida Yuldasheva Anasaliyevna	



BIZNESDA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA KASBIY KOMMUNIKATSIYALAR

Gulmurodova Marjona Olimjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliya” fakulteti talabasi

E-mail: gulmurodovamarjonafinancier@gmail.com

ORCID: 0009-0006-4068-7339

Normamatova Sitara Nozim qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliya” fakulteti talabasi

E-mail: sitoranormamatova6@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Umida Yuldasheva Anasaliyevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Xalqaro moliya” kafedrası professori, DSc.

Annotatsiya: Mazkur maqolada biznes va raqamli texnologiyalar davrida kasbiy kommunikatsiyaning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida tashkilotlar ichki va tashqi kommunikatsiya jarayonlarini samarali boshqarish va optimallashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Maqolada tezkor xabar almashish tizimlari, elektron pochta, video konferensiyalar, ijtimoiy tarmoqlar hamda sun'iy intellekt asosida ishlovchi vositalarning biznes jarayonlariga, korporativ madaniyat va boshqaruv samaradorligiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, jahon olimlarining tadqiqotlari hamda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan raqamli rivojlanish strategiyalari, IT-parklarning kengayishi va elektron hukumat tizimini joriy etish natijalari tahlil etiladi. Raqamli iqtisodiyotning o'sishi, IT-ta'limning takomillashuvi va startap ekotizimining rivojlanishi bo'yicha statistik ma'lumotlar asosida kasbiy kommunikatsiyaning innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: kasbiy kommunikatsiya, raqamli texnologiyalar, biznes kommunikatsiyasi, elektron hukumat, IT-parklar, video konferensiyalar, sun'iy intellekt, tezkor xabar almashish, startap ekotizimi, elektron tijorat.

Abstract: This article analyzes the role and importance of professional communication in the era of business and digital technologies. As a result of the development of modern information technologies, organizations have gained the opportunity to optimize internal and external communication processes. The article examines the impact of instant messaging systems, email, video conferences, social media, and tools based on artificial intelligence on business processes. Additionally, the article presents the results of research conducted by global scholars and relevant decisions made in the Republic of Uzbekistan, the development of IT parks, and the electronic government system. Statistical data on the growth of the digital economy, the development of IT education, and the startup ecosystem are also provided.

Key words: Professional communication, digital technologies, business communication, electronic government, IT parks, video conferences, artificial intelligence, instant messaging systems, startup ecosystem, e-commerce.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение профессиональной коммуникации в эпоху бизнеса и цифровых технологий. В результате развития современных информационных технологий организации получили возможность оптимизировать внутренние и внешние процессы коммуникации. В статье рассматривается влияние систем мгновенных сообщений, электронной почты, видеоконференций, социальных сетей и инструментов, основанных на искусственном интеллекте, на бизнес-процессы. Также приведены результаты исследований, проведенных мировыми учеными, и соответствующие решения, принятые в Республике Узбекистан, развитие ИТ-парков и системы электронного правительства. Приводится статистическая информация о росте цифровой экономики, развитии ИТ-образования и экосистемы стартапов.

Ключевые слова: Профессиональная коммуникация, цифровые технологии, бизнес-коммуникация, электронное правительство, ИТ-парки, видеоконференции, искусственный интеллект, системы мгновенных сообщений, стартап-экосистема, электронная торговля.



KIRISH

Bugungi zamonaviy biznes va raqamli texnologiyalar davrida kasbiy kommunikatsiya muvaffaqiyat kalitlaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insonlar o'rtasidagi muloqot usullari tubdan o'zgardi, natijada samaradorlik oshdi va global miqyosda hamkorlik qilish imkoniyatlari yanada kengaydi. Kasbiy kommunikatsiya — bu tashkilot ichida va tashqarisida samarali axborot almashinuvini ta'minlovchi jarayon bo'lib, u bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Avvalo, samarali boshqaruvni ta'minlaydi — rahbarlar va xodimlar o'rtasidagi to'g'ri muloqot ish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi. Jamoaviy ishlashni rivojlantirish esa xodimlar o'rtasida o'zaro hurmat, tushunish, tinglash va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratadi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, brend va mijozlar bilan aloqani mustahkamlash ham kasbiy kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, kompaniya mijozlarning taklif va shikoyatlarini o'z vaqtida qabul qilib, ularga tezkor va professional javob berish orqali sodiq auditoriyani shakllantiradi.

Mamlakatimizda raqamli texnologiyalar va kasbiy kommunikatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan qator muhim qarorlar qabul qilinmoqda. Shulardan biri — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 5-oktabrda imzolangan “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son'li Farmondir. Ushbu strategiya mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni nazarda tutadi [1]. Mazkur strategiya asosida so'nggi yillarda muhim o'zgarishlar amalga oshirildi, xususan, IT sohasining rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangicha tizimda o'qitiladigan IT maktablar ochildi, yoshlar o'rtasida bu sohaga qiziqishni oshirish va malakali kadrlar tayyorlash maqsadida “Bir million dasturchi” loyihasi yo'lga qo'yildi.

Yana bir muhim qaror — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-maydagi “Hududlarda yoshlarga raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarni o'rganish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan “IT-shaharcha”lar faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-178-son'li qaroridir [2]. Ushbu hujjatning asosiy maqsadi yoshlarni raqamli texnologiyalar sohasiga yo'naltirish, ularning bu yo'nalishda bilim olishga bo'lgan intilishini rag'batlantirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishdan iborat. Qaror doirasida seminarlar, treninglar va onlayn ta'lim resurslari orqali yoshlarda mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur raqamli kompetensiyalarni shakllantirish nazarda tutilgan. Shu orqali mamlakatda IT sohasida kasbiy kommunikatsiya madaniyatini mustahkamlash, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo'shuvchi yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash uchun qulay muhit yaratilmoqda.

Umuman olganda, zamonaviy raqamli texnologiyalar davrida kasbiy kommunikatsiya nafaqat tashkilot ichidagi boshqaruvning ajralmas qismi, balki iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida ham qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar mavzusida bir qator jahon olimlari ham o'z ilmiy tadqiqotlarini olib borganlar. Ularning ishlari kommunikatsiyaning samaradorligi, texnologik rivojlanish natijasida o'zgarayotgan ish muhiti hamda biznesdagi innovatsion yechimlarning ta'sirini chuqur o'rganishga qaratilgan. Mashhur sotsiolog Manuel Castells o'zining “The Rise of the Network Society” (“Tarmoq jamiyatining yuksalishi”) nomli asarida zamonaviy texnologiyalar axborot almashinuvini tezlashtirish orqali biznes muhitiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini tahlil qilgan. Uning fikricha, raqamli texnologiyalar kommunikatsiya jarayonlarini tubdan o'zgartirdi va global tarmoqlarda faoliyat yurituvchi kompaniyalar an'anaviy korporatsiyalarga nisbatan ko'proq ustunliklarga ega bo'ldilar [3].

Shuningdek, taniqli psixolog Albert Mehrabianning tadqiqotlari ham kasbiy va shaxsiy kommunikatsiya samaradorligini tushunishda muhim o'rin tutadi. Mehrabian modeliga ko'ra, odamlar o'rtasidagi muloqotda so'zlarning ta'siri atigi 7 foizni, ovoz ohangi 38 foizni, tana tili esa 55 foizni tashkil etadi. Bu nisbatlar shuni ko'rsatadiki, biznes uchrashuvlari va videoqo'ng'iroqlar kabi yuzma-yuz muloqot shakllari tashkilotlarda o'zaro ishonch, samimiylik va hamkorlikni mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega [4]. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda, insoniy omil — ya'ni noverbal kommunikatsiyaning ahamiyatini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning metodologiyasi tahlil va sintez, ilmiy abstraksiya, umumlashtirish hamda qiyosiy nazariy talqin usullariga asoslanadi. Tadqiqotning ilmiy manbai sifatida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy jurnallarda

1 <https://lex.uz/docs/-5030957>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-6927663>



chop etilgan maqolalari, xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan hisobotlar hamda statistik ma'lumotlar tahlili ishlatilgan. Shuningdek, real iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarga asosanib, raqamli texnologiyalar va kasbiy kommunikatsiyaning o'zaro bog'liqligi empirik jihatdan baholangan. Ushbu yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchiligidini oshiradi hamda ularni amaliyotda qo'llash imkonini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida kasbiy kommunikatsiyaning an'anaviy usullari tubdan o'zgarib, yangi formatdagi muloqot vositalari shakllanmoqda. Hozirda tashkilotlar, korxonalar va davlat muassasalari o'z faoliyatida raqamli aloqa kanallaridan keng foydalanmoqda, bu esa tezkor, qulay va interaktiv muloqot imkoniyatlarini yaratmoqda.

Avvalo, elektron pochta va tezkor xabar almashish tizimlari kasbiy kommunikatsiyaning asosiy vositalaridan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Elektron pochta rasmiy yozishmalar va hujjatlar almashinuvida muhim rol o'ynaydi, biroq Telegram, Slack va Microsoft Teams kabi tezkor xabar almashish dasturlari real vaqt rejimida muloqotni tashkil etib, jamoaviy qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtirmoqda.


Vidio konferensiyalar va onlayn uchrashuvlar zamonaviy korporativ hayotning ajralmas qismiga aylandi. Zoom, Google Meet va Microsoft Teams kabi platformalar turli hududlarda faoliyat yurituvchi jamoalarning masofadan turib uchrashuvlar o'tkazishiga imkon bermoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida bu texnologiyalar ish jarayonlarini uzluksiz davom ettirishda muhim vositaga aylandi. Bugungi kunda ham ular xalqaro biznes uchrashuvlari va masofaviy ta'limda keng qo'llanilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar va professional platformalar ham kasbiy kommunikatsiyaning muhim kanallaridan biri sifatida shakllanmoqda. LinkedIn, Twitter va Facebook kabi platformalar biznes aloqalarni kengaytirish, mijozlar bilan doimiy muloqot o'rnatish va kompaniya brendini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Korxonalar ushbu tarmoqlar orqali o'z mahsulot va xizmatlarini targ'ib qilmoqda, yangi hamkorlar bilan aloqa o'rnatmoqda hamda brend obro'sini oshirmoqda.

Shuningdek, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar biznes kommunikatsiyasi sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Chat-botlar, virtual yordamchilar va aqli tahlil tizimlari mijozlar bilan muloqotni soddalashtirib, xizmat ko'rsatish tezligini oshirmoqda. Masalan, banklar, sug'urta kompaniyalari va onlayn savdo platformalari sun'iy intellekt asosidagi yordamchi tizimlardan keng foydalanib, mijozlarga kechayu kunduz xizmat ko'rsatmoqda. Bu esa inson resurslariga tushadigan yukni kamaytirib, samaradorlikni oshiradi.

Yana bir muhim yo'nalish — bulutli texnologiyalar va fayl almashish tizimlaridir. Google Drive, Dropbox va OneDrive kabi platformalar hujjatlar ustida birgalikda ishlash, fayllarni real vaqt rejimida tahrir qilish va ulashish imkonini beradi. Bunday tizimlar jamoaviy ishni qulaylashtiradi, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlaydi hamda korporativ kommunikatsiyani soddalashtiradi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarning biznes kommunikatsiyasiga joriy etilishi ish unumdorligini oshirish, vaqt va resurslarni tejash, shuningdek xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda sun'iy intellekt, bulut texnologiyalari va avtomatlashtirilgan tizimlarning yanada rivojlanishi natijasida kasbiy kommunikatsiya sifatining oshishi, interaktiv hamkorlikning yangi shakllari paydo bo'lishi kutilmoqda. Bu jarayon o'z navbatida biznes jarayonlarini optimallashtirish, innovatsion o'sishni jadallashtirish hamda global iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi (1-rasm).



2-rasm. 2023-2027-yillarda texnologiyalar joriy etilishining ish o'rinlariga nisbatan kutiladigan ta'siri




Texnologik taraqqiyotning rivojlanishi, birinchi navbatda, ommaviy ishlab chiqarish kasblarini, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasini hamda ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish bilan bog'liq kasblarni o'zgartiradi. Bugungi kunda bu sohalardagi ishlar avtomatlashtirilgan tizimlar va sun'iy intellekt tomonidan almashtirilmoqda. Ish o'rinlarining yo'qolishi nuqtayi nazaridan, ma'lumotlarni kiritish operatorlari eng katta xavf ostida turibdi; besh yil ichida 8 million ish o'ri qisqarishi prognoz qilinmoqda. Shuningdek, kotiblar va buxgalterlar kabi kasblar ham xavf ostida. Shu bilan birga, texnologiyalarni uzluksiz joriy etish va tobora ortib borayotgan raqamlashtirish jarayoni mehnat bozorida katta o'zgarishlarga sabab bo'lib, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.

Xususan, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun sanoatni ugleroddan xoli qilish bo'yicha global sa'y-harakatlar, robototexnika rivojlanishi, kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq muammolar ushbu sohalarda ish o'rinlari sonining sezilarli darajada ko'payishiga olib keladi. Umuman olganda, JIF tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2030-yilgacha qishloq xo'jaligi texnologiyalari, raqamli platformalar va ilovalar, elektron tijorat, raqamli savdo hamda sun'iy intellekt mehnat bozorida muhim burilishlarga sabab bo'lishi mumkin. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mehnat bozori prognozlari haqidagi hisobotiga ko'ra, avtomatlashtirish texnologiyalari, jumladan, sun'iy intellekt yordamida hozirgi ish o'rinlarining taxminan 27 foizini raqamlashtirish imkoniyati mavjud. IHTT o'tkazgan so'rovlarda qatnashgan respondentlar sun'iy intellekt moliyaviy (51 foiz) va ishlab chiqarish (45 foiz) sohalardagi ishchilarning ayrim malakalarini "ahamiyatsizlantirgan" deb hisoblashmoqda.

Bugungi kunda jahonda katta talabga ega bo'lgan kasblarning ko'pchiligi texnologiyaga aloqador. 2023–2027-yillardagi istiqboldagi kasblar ro'yxatida sun'iy intellekt va mashina o'rganish mutaxassislari birinchi o'rinda turibdi. Eng yaxshi beshlikka yana barqaror rivojlanish bo'yicha menejerlar, biznes-analitikalr, axborot xavfsizligi sohasidagi ekspertlar hamda "Fintech" mutaxassislari kirgan. Bundan tashqari, keyingi 4–5 yil ichida ma'lumotlar tahlilchilari va muhandislari, robototexnika bo'yicha mutaxassislari, elektrotexnika muhandislari, qishloq xo'jaligi texnikasi operatorlari va raqamli o'zgarishlar bo'yicha mutaxassislarga talabning tobora ortib borishi taxmin qilinmoqda.

Texnologiyaning rivojlanishi mehnat bozorida qatnashuvchilar oldiga yangi talablarni qo'yimoqda. Raqamlashtirish malakalariga ega bo'lgan xodimlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bunday malakalar jumlasiga raqamli (digital skills) va media savodxonlik (media skills), internetdan foydalanish (Internet skills), axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish (ICT skills) hamda sun'iy intellekt bilan ishlash ko'nikmalari kiradi. Aholining barcha tabaqalari bunday malakalarga ega bo'lishi iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, texnologik o'zgarishlar ishchilarning kognitiv, ya'ni tahliliy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, shuningdek "yumshoq malakalar"ni ("soft skills" — kundalik faoliyatda va ish joyida zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar, moslashuvchanlik, odatlar, shaxslararo va muloqot mahoratlarini) yanada muhimlashtirmoqda (2-rasm).



2-rasm. Talab kuchayib borayotgan ko'nikmalar



Buning ustiga, hozirgi vaqtda ish jarayoniga nisbatan “qo'shimcha ish” (“augmented work”) termini keng qo'llanilmoqda. Bu raqamli texnologiyalar, turli dasturlar va platformalardan foydalanib, mehnat unumdorligini oshirish hamda kundalik vazifalarni yengillashtirish jarayonini bildiradi. Qolaversa, ma'lumotlar bilan ishlash malakalari ham muhim ahamiyatga ega. Jahon miqyosida barcha raqamli texnologiyalar orqali tarqatilayotgan axborotlar har doim ham ishonchli va to'g'ri bo'lavermasligi mumkin, ba'zi holatlarda esa bu texnologiyalar noto'g'ri ma'lumotlarga ham olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli, ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni tartibga solish qobiliyati katta rol o'ynaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda biznesda muvaffaqiyat qozonish uchun samarali kasbiy kommunikatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida muloqot jarayonlari yangi bosqichga ko'tarilib, biznes jarayonlarini optimallashtirishga yordam bermoqda. Zamonaviy vositalardan to'g'ri foydalanish, aniq va ravon muloqot yuritish, jamoaviy ishni rivojlantirish hamda mijozlar bilan samarali aloqa o'rnatish — biznesda raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Biznesda kasbiy kommunikatsiyani rivojlantirish uchun bir qator muhim bosqichlarni amalga oshirish zarur. Ular orasida raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish, kasbiy va shaxsiy kommunikatsiya ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirib borish, jamoada kuchli muloqot muhitini shakllantirish uchun samarali platformalardan foydalanish, shuningdek, mijozlar va hamkorlar bilan uchrashuvlarda samimiy hamda professional aloqa muhitini yaratishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. [Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 5-oktyabrda “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-sonli Farmoni asosida.](#)
2. [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-maydagi “Hududlarda yoshlarga raqamlashtirish va xorijiy tillarni o'rganish uchun qo'shimcha sharoitlarni yaratishga qaratilgan “IT-shaharchalar” faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-178-sonli qarori.](#)
3. Historical and Statistic World Economy. Maddison Project.
4. IRENA (2017), Renewable capacity statistics 2017, International Renewable Energy Agency (IRENA), www.irena.org/Publications
5. Report for the UN secretary-general “An action agenda for sustainable development”. 2014. - P. 1-2.
6. [Mashhur sotsiolog Manuel Castells o'zining “The Rise of the Network Society”\(Tarmoq Jamiyatining Yuksalishi\) kitobidan olingan fikrlar.](#)
7. Mehrabian,A.(1971). Silent Messages:Implicit Communication of Emotions and Attitudes.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

7-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
